

**O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI
ONLAYN MUNOSABATLARDAGI YUZAGA KELADIGAN HUQUQIY
MUOMMOLARNI HAL ETISH YO‘LLARI**

Nig‘matullayeva Laylo

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekistonda sun’iy intellekt (SI) ishtirokidagi onlayn munosabatlarga doir asosiy yuridik muammolar tahlil qilinadi. Maqola O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini sun’iy intellekt sohasida xalqaro standartlarga mos integratsiyalash, ijro-etish va nazoratni kuchaytirish hamda “shaffof va mas’uliyatli” SI boshqaruvi tamoyillarini o‘rnatish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: xavfsizlik, etika, raqamli O‘zbekiston, deepfake, qora quti, EU AI Act, kiberxavfsizlik, iste’molchilar, shaxsiy ma’lumotlar muhofazasi.

**ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ОНЛАЙН-ВЗАИМОДЕЙСТВИЯХ С
УЧАСТИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЗБЕКИСТАНЕ
И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ**

Нигъматуллаева Лайло

Магистрантка Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в данной статье анализируются основные правовые проблемы, возникающие в Узбекистане при участии искусственного интеллекта (ИИ) в онлайн-взаимодействиях. Отмечается необходимость интеграции законодательства Республики Узбекистан в сфере ИИ с международными стандартами, усиления механизмов исполнения и контроля, а также внедрения принципов «прозрачного и ответственного» управления ИИ.

Ключевые слова: безопасность, этика, цифровой Узбекистан, deepfake, «чёрный ящик», EU AI Act, кибербезопасность, потребители, защита персональных данных.

**LEGAL APPROACHES TO RESOLVING ONLINE-
INTERACTION ISSUES INVOLVING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN
UZBEKISTAN**

Nig'matullayeva Laylo

Master's Student, Tashkent State University of Law

Abstract: *this article analyzes the primary legal challenges arising from online interactions involving Artificial Intelligence (AI) in Uzbekistan. It emphasizes the need to adapt Uzbek legislation in the AI field to international standards, strengthen implementation and oversight mechanisms, and establish principles of “transparent and responsible” AI governance.*

Keywords: *security, ethics, digital Uzbekistan, deepfake, black box, EU AI Act, cybersecurity, consumers, personal data protection.*

KIRISH

Turli davlatlarning huquqiy tizimi va tarixiy tajribasidagi farqlarni hisobga olgan holda, sun'iy intellekt sohasidagi milliy qonunchilik ham rang-barang bo'lishi ehtimoli juda yuqori. Sun'iy intellekt rivojlanishidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish uchun butun jahon hamjamiyati a'zolari tomonidan kelishilgan ma'lum umumiy qoidalar zarur. Bundan tashqari, davlatlarning mutlaq ko'pchiligi qonunchiligini xalqaro normalarga yo'naltiradi, demak, xalqaro darajada muayyan qoidalarining belgilanishi milliy qonunchilikda ham o'xshash normalarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Rivojlangan mamlakatlar qatori, bizda ham sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishiga

SJIF:5.219

e'tibor qaratilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida SI texnologiyalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani, Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida president qarori, SI sohasida ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashga doir siyosiy irodalar mavjudligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellektni bevosita tartibga soluvchi maxsus qonun mavjud emas. O'zbekiston qonunchiligida "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Kiberxavfsizlik to'g'risida", "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi Qonunlar mavjud. Ushbu qonunlar fuqarolar huquqlarini himoya qiladi, ammo sun'iy intellekt keltirib chiqargan oqibatlar uchun javob bermaydi.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

Normativ-huquqiy tahlil: O'zbekistonning "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Kiberxavfsizlik to'g'risida", "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi SI ga oid qonun-hujjatlari tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli: EU AI Act, CoE konvensiyasi va boshqa xalqaro standartlar va manbaalarni tahlil qilindi.

Doktrinal va doktrinariya yondashuv: SI ga oid huquqiy kontseptlar, "qora quti" (black box), etik va mas'uliyat qoidalari ko'rib chiqildi.

TADQIQOT NATIJALARI

O'zbekiston Respublikasi sun'iy intellektni 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasida normativ-huquqiy bazani shakllantirishga oid milliy qonunchilik hujjatlarini xalqaro tajriba asosida ishlab chiqish va takomillashtirish maqsadida

SJIF:5.219

quyidagi choralar ko‘riladi. 1. Tadqiqotlar natijalari hamda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o‘rgangan holda sun‘iy intellekt texnologiyalari rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash sohasida mustahkam huquqiy asos yaratish; 2. Sun‘iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning yaxlit tizimini yaratish; 3. Sohadagi davlat standartlari va normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish; 4. Sun‘iy intellekt texnologiyalari sohasidagi institutsional asoslarni shakllantirish; 5. Ma‘lumotlarni qayta ishlash va saqlash markazlaridagi “bulutli texnologiyalar” xizmatlari bo‘yicha ma‘lumotlarning yaxlitligi va xavfsizligini ta‘minlash asoslarini kuchaytirish. Xavfsizlik va etika talablarini joriy etish maqsadida sun‘iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha etika qoidalarini ishlab chiqish, ma‘lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash hamda ularni muhofaza qilish va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish kabi muhim vazifalar mavjud¹.

Jamiyat o‘zgarar ekan, qonun chiqaruvchi organning huquqni yangi sharoitlarga moslashtirishga bo‘lgan harakatlari yangi normalar qo‘shilishiga olib kelmoqda. Normaning ko‘payishi huquqiy mato sifatini pasaytiradi, normalar o‘rtasidagi bog‘liqlik yo‘qoladi. Ba‘zi qoidalar boshqalariga zid bo‘lib qolishi tabiiy holat. Sun‘iy intellektning elektron tijoratga integratsiyasi yangi huquqiy muammolarni yuzaga keltirar ekan, bular qatoriga iste‘molchilarni himoya qilish, ma‘lumotlar maxfiyligini ta‘minlash va intellektual mulk huquqlarini himoya qilish kiradi. Shu bilan birga, bu jarayon huquqiy innovatsiyalar va yanada ilg‘or

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2024-yil, 358-son // O‘zbekiston Respublikasi Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi.
SJIF:5.219

tartibga soluvchi mexanizmlarni yaratish uchun yangi imkoniyatlarni ham taqdim etadi.

Sun'iy intellektni tartibga solishga asos bo'ladigan mavjud axloqiy tamoyillarga tayangan holda, sun'iy intellektning huquqiy tartibga solish prinsiplari shakllantirilishi mumkin. Yuridiklar fikriga ko'ra, bu sohada qonunchilikni shakllantirish quyidagi asosiy qoidalarni hisobga olishi kerak. Birinchidan, inson huquqlari, jamiyat va davlat xavfsizligining ustuvorligini ta'minlash. Ikkinchidan, sun'iy intellektni ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish haqida axborotning shaffofligini kafolatlash. Uchinchidan, hech qanday kamsitishlarsiz sun'iy intellektdan foydalanish huquqining teng ta'minlanishini kafolatlash. To'rtinchidan, insonning sun'iy intellekt bilan o'zaro munosabat shartlarini tanlash huquqini, shu jumladan undan foydalanishdan voz kechish huquqini kafolatlash².

Davlat tomonidan sun'iy intellekt kabi jadal rivojlanayotgan yangi texnologiyalar sohasiga yetarlicha e'tibor berilmasligi katta bahs-munozaralarga, texnik nosozliklarga, hattoki o'lim holatlariga olib kelishi mumkin. Agar bunday holatlarning oldini olish yoki ularni hal etish uchun zarur choralar ko'rilmasa, bu nafaqat bevosita salbiy oqibatlariga, balki bilvosita salbiy ta'sirlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Chunki qonunchi bunga javoban butun sanoat tarmoqlariga nisbatan haddan tashqari cheklovlar kiritishi yoki jamiyatni samarali himoya qiladigan chora-tadbirlarni ko'rmasligi mumkin. Sun'iy intellekt keltirib chiqaradigan asosiy huquqiy muommolar bu —javobgarlik masalasi, shaxsiy

² Ручкина Г., Демченко М., Попова А. Теория правового регулирования искусственного интеллекта, роботов и объектов робототехники: монография. – Москва: Прометей, 2020. – 296 с.
SJIF:5.219

ma'lumotlarni himoya qilish, noaniq algoritmlar va shaffoflikning yo'qligi, noto'g'ri yoki diskriminatsion qarorlar, mualliflik huquqi va intellektual mulkka oid muommolar. SI vositasida qabul qilingan qarorlar noto'g'ri bo'lishi yoki zarar yetkazishi mumkin. Masalan, kredit skoring tizimi orqali noto'g'ri baholash natijasida fuqaro moliyaviy zarar ko'rishi mumkin. Bunday hollarda kim javobgar bo'ladi — SI dasturchisi, egasi, foydalanuvchimi? Amaldagi qonunchilikda bu masala aniq tartibga solinmagan. SI tizimlari katta hajmdagi shaxsga doir ma'lumotlarni to'playdi, tahlil qiladi va saqlaydi. Onlayn faoliyat davomida fuqarolarning roziligisiz ma'lumotlar yig'ilishi yoki ulardan noto'g'ri foydalanilishi shaxsiy hayot daxlsizligi prinsipiga zid keladi. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning³ SI texnologiyalariga qo'llanishi amaliyotda ko'plab savollarni tug'diradi. Ko'plab SI tizimlarida ishlovchi algoritmlar "qora quti" (black box) usulida faoliyat yuritadi, ya'ni foydalanuvchi qaror qanday qabul qilinganini tushunmaydi. Bu esa qaror ustidan shikoyat qilish, uni baholash va nazorat qilish imkonini cheklaydi. Algoritmik shaffoflikning yo'qligi inson huquqlariga tahdid tug'dirishi mumkin. SI tizimlarining qaror qabul qilishida ba'zan mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda irqiy, jinsiy yoki boshqa ko'rinishdagi diskriminatsion natijalar kuzatilishi mumkin. Bunday holatlar huquqiy jihatdan asossiz qarorlar sifatida e'tirof etilishi lozim, biroq ularni aniqlash va javobgarlikni belgilash amaliyoti hali to'liq shakllanmagan. SI vositasida yaratilgan kontent (matn, rasm, musiqa, dasturiy kod) kimga tegishli bo'ladi? Agar SI mustaqil tarzda yangi asar yaratgan bo'lsa, bu asarning muallifi

³ O'zbekiston Respublikasining qonuni // Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida, 2019-yil, 547-son.
SJIF:5.219

kim hisoblanadi? Bu savollar hanuz xalqaro huquq doirasida bahsli bo‘lib qolmoqda.

MUNOZARA

Sun‘iy intellektning insoniyat uchun global miqyosdagi ahamiyati xalqaro darajada javob choralari ko‘rishni talab qiladi. Bu faqat alohida davlatlararo birlashmalar faoliyatida emas, balki global xalqaro tashkilotlar — ya‘ni BMT va uning ixtisoslashtirilgan muassasalari, xususan, YUNESKO va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) faoliyatida ham o‘z aksini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni⁴ to‘g‘ri va ishonchli axborot olish huquqi, xavfsiz mahsulot va xizmatga ega bo‘lish huquqi, shaffof va adolatli shartnoma asosida xizmat olish huquqi, zararni qoplash huquqi, sud yoki boshqa himoya mexanizmlaridan foydalanish huquqi kabi asosiy huquqiy tamoyillarni belgilaydi. SI mahsulotlari va xizmatlari ushbu tamoyillarning har birini sinov ostiga qo‘yadi, ayniqsa SI tomonidan berilgan noto‘g‘ri tavsiyalar yoki qarorlar, algoritmlarning shaffof emasligi maxfiylik va shaxsiy ma‘lumotlar buzilishi kabi holatlarda. Misol uchun onlayn servislar orqali noto‘g‘ri kredit reytingi, noto‘g‘ri sog‘liq bo‘yicha tavsiyalarni keltirsak bo‘ladi. Ayrim SI tizimlari “qora quti” (black box) bo‘lib, ularning qanday ishlashi yoki qaror qabul qilgan mexanizmini iste‘molchi tushunmaydi. SI ning ishlashi ko‘pincha katta hajmdagi shaxsga doir ma‘lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashga tayanadi. Bu esa maxfiylik huquqining buzilishiga olib kelishi mumkin. SI asosidagi xizmatlar (chatbotlar, tavsiya tizimlari) iste‘molchi

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” qonuni, 1996-yil, 221-I-son.

bilan haqiqiy inson o'rtasidagi farq aniq belgilanmagan. SI tomonidan noto'g'ri qaror tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasi aniq emas. Iste'molchi SI bilan muloqot qilayotganini oldindan bilish huquqiga ega emas. Shunday ekan, O'zbekistonda sun'iy intellekt ishtirokidagi onlayn xizmatlarda iste'molchi huquqlarini himoya qilish uchun qator vazifalar mavjud. SI asosida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar uchun huquqiy majburiyatlar, iste'molchilarga esa aniq huquqiy kafolatlar belgilangan qonun hujjatlari zarur. Bu, xususan, "Sun'iy intellekt asosida xizmat ko'rsatish to'g'risida"gi qonun shaklida maxsus normativ-huquqiy hujjat bo'lishi mumkin. Iste'molchining SI qaroriga sabab bo'lgan omillarni bilish, unga shikoyat qilish va alternativ qaror so'rash huquqi ta'minlanishi kerak. "Tushuntirish mumkin bo'lgan SI" (explainable AI) prinsipi qonunchilikka kiritilishi maqsadga muvofiq. SI texnologiyalarida etik me'yorlarni joriy etish, ularning buzilishi holatlarini nazorat qiluvchi maxsus davlat organlari yoki ombudsmanlar institutini yaratish istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Iste'molchilarning ma'lumotlarga egalik huquqini mustahkamlash, ya'ni, iste'molchi o'z ma'lumotlarining qanday ishlatilayotganini bilish, uni o'zgartirish yoki yo'q qilish huquqiga ega bo'lishi kerak. Bu "shaxsiy ma'lumotlarga egalik qilish" tamoyilini qonuniy mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Iste'molchilarning raqamli huquqlari, SI texnologiyalari va xavflar haqidagi bilim darajasi past bo'lishi — ularning huquqlari buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois axborot kompaniyalari va ta'lim dasturlari zarur. Qonunchilikni rivojlantirish, etik tamoyillarni joriy etish va raqamli savodxonlikni oshirish orqali fuqarolar SI ishtirokidagi onlayn munosabatlarda o'zini erkin va himoyalangan his qilishi mumkin bo'ladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlanishini qo'llab-quvvatlagan holda, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi amalga kirdi. Bu mamlakatda raqamli transformatsiyani jadallashtirish, texnologik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash va zamonaviy raqamli iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli hujjatdir. Ushbu strategiyada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish⁵ muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangani tahsinga sazovor. Biroq, har qanday texnologik taraqqiyot bilan birga muayyan xavf-xatarlar va huquqiy bo'shliqlar ham yuzaga chiqadi. Masalan, huquqiy infratuzilmaning orqada qolishi. Strategiya SI ni jadal rivojlantirishni nazarda tutadi, ammo mavjud huquqiy baza SI bilan bog'liq murakkab masalalarni – masalan, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, algoritmik diskriminatsiya, javobgarlik masalalari – to'liq tartibga solmaydi. Bu holat texnologiya tez rivojlanib, huquqiy mexanizmlar esa kechikayotgan muvozanatsizlikni keltirib chiqaradi. Maxsus nazorat va etik standartlar bo'lmasa, SI texnologiyalarining noto'g'ri, masalan, fuqarolar ustidan kuzatuv yoki manipulyativ reklama uchun ishlatilishi mumkin. Bu inson huquqlari va shaxsiy erkinliklarga tahdid soladi. Xavfsizlik va kiberxavfsizlik muammolari ham kelib chiqishi tabiiy holat. SI asosidagi tizimlar murakkab algoritmlarga tayanadi, ularni buzish, manipulyatsiya qilish yoki noto'g'ri ishlash xavfi mavjud. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi bu borada umumiy chora-tadbirlarni ko'rsatsa-da, SI ga oid maxsus xavfsizlik me'yorlari hali ishlab chiqilmagan. Sun'iy intellekt keng qo'llanila boshlagan sari, ba'zi qatlamlar raqamli infratuzilmadan chetda qolishi, ya'ni

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. – 2020-yil, 6079-son.

raqamli tengsizlik yuzaga kelishi mumkin. Strategiyada bu xavf to'liq yoritilmagan. Shu bois, strategiyani amalga oshirish bilan bir qatorda, sun'iy intellektni tartibga soluvchi qonunchilik, standartlar, nazorat mexanizmlari va etika me'yorlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Har yili texnologik dunyodagi o'zgarishlarga moslashish zarurati ortib bormoqda, chunki yangi kibertahdidlarning tez-tez paydo bo'lishi katta moliyaviy yo'qotishlar va umuman jamiyat xavfsizligiga tahdid solidi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 10-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston axborot makoniga qilingan hujumlar soni bo'yicha dunyoda 43-o'rinni egallagan. Ta'kidlash joizki, 2024-yil 30-dekabrdan 2025-yil 5-yanvargacha bo'lgan haftada O'zbekistonga o'rtacha 27 879 ta tarmoq hujumi uyushtirilgan⁶. Shunga qaramay, O'zbekistonning Global kiberxavfsizlik indeksi bo'yicha erishgan yutuqlarini ham alohida qayd etish lozim. 2024-yilda mamlakat ushbu indeks bo'yicha 89,2 ball to'plab o'z o'rnini yaxshiladi. Shuningdek, 2024-yil 8-iyul kuni O'zbekistonda "Kiberxavfsizlik monitoring arkazi" ochildi. Uning asosiy vazifasi — davlat idoralari infratuzilmasida kiber tahdidlarni aniqlashdir. Shunga qaramay, mamlakatda hanuz ko'plab kiberhujumlar sodir bo'lmoqda, bu esa kiberhimoya darajasining pastligi, siyosiy yoki iqtisodiy motivlar mavjudligi, kiber tahdidlarga qarshi kurashda muvofiqlashtirishning zaifligi yoki kiberjinoyatchilar faolligining oshganligini ko'rsatishi mumkin. Hukumat e'tiborini mutaxassislar yetishmasligi, qonunchilik bazasining to'liq emasligi, davlat va xususiy sektorlar infratuzilmasidagi zaifliklar, aholining xabardorlik darajasi va xavfsizlik

⁶ Interactive cyber threat map (Elektron resurs). – URL: <https://cybermapkaspersky.com/ru> (murojat qilingan sana: 11.06.2025).
SJIF:5.219

infratuzilmasiga sarmoyalar yetishmasligi kabi kiberxavfsizlikning muhim yo‘nalishlariga qaratishi lozim. O‘zbekiston Respublikasida sun‘iy intellektdan kelib chiqadigan xavflarni oldini olish choralari tizimli yondashuvni talab etadi. Mazkur choralarning markazida inson huquqlari, shaxsiy daxlsizlik, axborot xavfsizligi va javobgarlik mexanizmlarining aniq belgilanishi turadi.

SI texnologiyalari orqali onlayn munosabatlarda, suhbat botlarida yoki veb-xizmatlarda foydalanuvchi ma’lumotlari mujassamlanadi. Mazkur ma’lumotlar noto‘g‘ri ishlatilishi, yashirin tarqatilishi yoki deepfake kabi usullar yordamida manipulyatsiya qilinishi mumkin. Onlayn platformalarda bot yoki virtual yordamchi orqali yaratilgan matn-rasmlar tarqaladi, ammo foydalanuvchi ularni inson yozgani deb qabul qiladi. Onlayn maslahat platformalarida yoki e-hukm tizimlarida foydalanuvchiga qarorlar to‘g‘risida keskin ta’sir ko‘rsatadigan xulosalar sun‘iy intellekt algoritmlari tomonidan berilish ehtimoli mavjud. Bunday hol SI xatolariga olib kelishi yoki inson huquqlarini cheklashi mumkin. Huquqiy jihatdan SI tizimlari, ular tomonidan keltirilgan xatoliklar (masalan, shaxsiy erkinlikka zarar, noto‘g‘ri maslahat) uchun mas’ul-playyer aniqlanmasligi — katta muammo. O‘zbekistonning SI sohasidagi huquqiy tashabbuslari (shu jumladan qonun loyihasi) huquqiy va texnologik yangilanishga intilmoqda. Biroq integratsiya qilish, ijro mexanizmi, monitoring, javobgarlikni taqsimlash va kiberxavfsizlik kabi chora-tadbirlar amaliyotda puxta bajarilishi uchun normativ bazani chuqurlashtirish talab etiladi. Xalqaro yuridik tajribalar (EU AI Act⁷, CoE konventsiyasi⁸) va milliy jihatdan sud amaliyoti bilan integratsiya ehtiyoji —

⁷ European Union. Artificial Intelligence Act. Brussels, 2024.

⁸ Council of Europe. European Convention on Human Rights. France, 2010.

O'zbekistonni O'rta Osiyo bo'yicha SI boshqaruvi modellaridan yetakchi qilish imkonini beradi.

XULOSA

Sun'iy intellekt rivojlanishda davom etar ekan, u bilan bog'liq huquqiy me'yorlar ham takomillashib boradi. Kelajakda O'zbekiston SI bilan bog'liq iste'mol munosabatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash yo'lida quyidagi tamoyillarni qo'llashi, xalqaro standartlarga muvofiq qonunchilik yaratishi, sun'iy intellektni sinchkov tartibga solish orqali texnologik neytrallik va inson huquqlari ustuvorligi o'rtasida nazoratni ushlay oladi va iste'molchi huquqlarini himoya qila oladi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy maqomini belgilovchi kompleks qonuniy hujjatlarni ishlab chiqish – bunda sun'iy intellektning xizmat ko'rsatishdagi roli, inson aralashuvisiz qabul qilinadigan qarorlarning yuridik oqibatlari aniq belgilanishi lozim. Iste'molchilarning algoritmik qarorlarga e'tiroz bildirish va inson aralashuvi orqali ularni qayta ko'rib chiqish huquqini qonuniylashtirish. Sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar uchun javobgarlik va kompensatsiya mexanizmlarini joriy etish – noto'g'ri xizmat, zarar yetkazilgan holatlarda javobgar tomon va himoya mexanizmlari qonunda aniq ko'rsatilishi kerak. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish istiqbollari bevosita mamlakatda sun'iy intellekt bilan bog'liq sohalarning barqaror va adolatli rivojlanishiga bog'liqdir. Shunday qilib, ushbu tadqiqot orqali aniqlangan natijalar, tavsiyalar va ilmiy xulosalar O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalari ishtirokidagi iste'molchilarning huquqiy himoyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu esa "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Sun'iy

SJIF:5.219

intellektning ommaviy sohada qo'llanilishini huquqiy tartibga solish, bir tomondan, davlat organlarining o'z funksiyalarini samarali bajarishini ta'minlashi, ikkinchi tomondan esa, tobora ko'proq sun'iy intellekt yordamida boshqarilayotgan dunyoda inson huquqlarining ishonchli himoyasini kafolatlashi lozim.

Sun'iy intellekt (SI) o'zida katta imkoniyatlarni ham, jiddiy xavflarni ham mujassam etadi. Mas'uliyatli SI qo'llanilishi dolzarb muammolarni hal qilishga yordam berishi, dunyomizni farovon, samarali, innovatsion va xavfsizroq qilishi mumkin. Biroq, mas'uliyatsiz SI ishlatilishi firibgarlik, kamsitish, tarafkashlik, yolg'on ma'lumot tarqatish kabi ijtimoiy zararlarni kuchaytirishi, ishchilarning ish joylarini yo'qotishiga olib kelishi, raqobatni cheklashi va milliy xavfsizlikka tahdid solishi mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda sun'iy intellekt ishtirokida shakllanayotgan onlayn munosabatlarda quyidagi asosiy huquqiy muammolar aniqlangan:

1. Iste'molchilarning SI tomonidan qabul qilingan qarorlarga nisbatan e'tiroz bildirish huquqi yetarlicha tartibga solinmagan;
2. Shaxsga doir ma'lumotlarning to'planishi va qayta ishlanishi jarayonida algoritmik shaffoflik va rozilik mexanizmlari noaniqligicha qolmoqda;
3. Sun'iy intellekt xizmatlaridan zarar ko'rilgan taqdirda, iste'molchilarning huquqiy himoyasi va kompensatsiya mexanizmlarining yuridik asoslari to'liq ishlab chiqilmagan.

Amaldagi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar umumiy tamoyillarni
SJIF:5.219

belgilab bergan bo‘lsa-da, ularning ko‘lami sun‘iy intellekt asosida vujudga kelayotgan yangi xavflarni qamrab olishga to‘liq qodir emas. Bunda algoritmik diskriminatsiya, noto‘g‘ri qarorlar, avtomatik javobgarlik, shaxsiy hayot daxlsizligi singari masalalar alohida yondashuvni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2024-yil, 358-son // O‘zbekiston Respublikasi Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi.
2. Ручкина Г., Демченко М., Попова А. Теория правового регулирования искусственного интеллекта, роботов и объектов робототехники: монография. – Москва: Прометей, 2020. – 296 с.
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni // Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida, 2019-yil, 547-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” qonuni, 1996-yil, 221-I-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – 2020-yil, 6079-son.
6. Interactive cyber threat map (Elektron resurs). – URL: <https://cybermapkaspersky.com/ru> (murojat qilingan sana: 11.06.2025).
7. European Union. Artificial Intelligence Act. Brussels, 2024.



8. Council of Europe. European Convention on Human Rights. France, 2010.